

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ЧЕТ ЭЛ TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA YONDASHUVLARI

*Qosimova Farangiz Sherzod Qizi*

*Maktabgacha ta 'lim yo 'nalishi 2-kurs talabasi*

*E-mail [farangizkosimova4@gmail.com](mailto:farangizkosimova4@gmail.com)*

*Tel: +998 90 565 33 08*

**Annotation.** Ushbu maqolada maktabgacha ta 'lim tashkilotlarida xorij davlatlardi ilg 'or tajriba va texnologiyalar qiyosiy tahlil asosida yoritilgan. Asosan rivojlangan G 'arb va Sharq mamlakatlaridagi maktabgacha ta 'lim shakllari va sharoitlari haqida ma'lumotlar berib o 'tilgan. Hamda mamlakatimizda maktabgacha ta 'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni va uning natijaviyligiga doir fikrlar yoritilgan. Ta 'lim tizimidagi ilg 'or tajribalar davlatlarning rivojlanishini ta 'minlashdagi o 'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta 'lim, xorij texnologiyalari me'yoriy-huquqiy asoslar, islohot, xorijiy davlatlar, O 'zbekiston, Germaniya, Xitoy, Biyuk Britaniya, AQSH ilg 'or tajribalar, bola, avlod, yetuk kadr, istiqbol, Renessans, tadqiqotlar, elektron resurslar, renesssans.

### ЗАРУБЕЖНЫЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ДОШКОЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

**Аннотация.** В данной статье на основе сравнительного анализа освещаются передовой опыт и технологии в ДОУ зарубежных стран. Приводится информация о формах и условиях дошкольного образования, преимущественно в развитых странах Запада и Востока. Освещены вопросы содержания и эффективности проводимых в нашей стране реформ в сфере дошкольного образования. Обсуждалась роль и значение передового опыта в системе образования в обеспечении развития государства.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, зарубежные технологии, нормативно-правовые основы, реформы, зарубежные страны, Узбекистан, Германия, Китай, Великобритания, США передовой опыт, ребенок, поколение, зрелые кадры, перспективы, Возрождение, исследования, электронные ресурсы, возрождение.

## APPROACHES ON THE BASIS OF FOREIGN TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

**Annotation.** This article covers advanced experience and technologies in foreign countries in preschool educational organizations based on a comparative analysis. Information has been given about the forms and conditions of preschool education in mainly developed Western and Eastern countries. As well as the content of the reforms carried out in the field of preschool education in our country and thoughts on its effectiveness are covered. The role and importance of advanced experiences in the educational system in ensuring the development of States has been considered.

**Keywords:** Preschool education, regulatory framework of foreign technologies, reform, foreign countries, Uzbekistan, Germany, China, Great Britain, USA advanced experiences, child, generation, mature frame, perspective, Renaissance, Studies, electronic resources, Renaissance.

Maktabgacha ta’lim tizimi uzlusiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Ko‘p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson o‘z umri davomida oladigan barcha ma’lumotlarining 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrida olar ekan. Demak, bolalarning sog‘lom va bilimli, yetuk kadr bo‘lib voyaga yetishida maktabgacha ta’lim va tarbiya muhim o‘rin egallaydi.

Bugungi rivojlanish va taraqqiyot asrining asosiy talablaridan biri jahon andozalari asosida sifatli va zamonaviy ta’limni tashkil etishdir. Maktabgacha ta’lim tizimida Jahon mamlakatlardagi tajribasini o‘rganib, ulardan samaralilarini amaliyotga tatbiq etish masalasi davlatimiz rahbari tomonidan qonuniy asoslab berildilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-oktabr kuni maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda ta’kidlaganidek “Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to‘g‘ri keladi: ta’lim-tarbiya - biz uchun hayot-mamot masalasidir. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi” deb ta’kidlagan edi.[1]

Shu maqsadda o‘sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirishda bu boradagi xorijning ilg‘or tajribalaridan foydalangan holda ta’limning zamonaviy usullarini keng tatbiq qilish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman.

So‘nggi yillarda ta’limning eng asosiy hamda kichik bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’limga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligiga guvohmiz. Jumladan maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy - texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmoqlarini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash, yosh avlodni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, bolalarni har tomonlama ta’limiy, tarbiyaviy, estetik, jismoniy hamda intellektual jihatdan rivojlanishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda makatabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘isida” gi PQ-2707-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq qator vazifalar belgilab berildi, xorij mamlakatlarining maktabgacha ta’lim tizimi chuqur o‘rganilib amalda mamlakatimizda joriy etilishi hamda hamkorlikda ishlash kabi muhim hamda dolzarb vazifalar belgilab olindi. Bu albatta yosh avlod ta’lim va tarbiyasi uchun juda muhim chunki xorijiy mamlakatlar ta’lim jarayoni to‘liq o‘rganilib amalda tadbiq etilishi albatta yana innovatsion va ilg‘or tajribalarni kirib kelishiga zamin yaratadi deb o‘ylaymiz[2].

Buyuk Britaniyada ta'lim tizimi yondashuvni misol tariqasida oladigan bo'lsak: odatda ta'lim berish o'rganilayotgan predmet yoki o'qituvchiga emas, balki bolaga yo'naltiriladi. Bunday yondashuv ingliz ta'limi tarixiga asoslanib, uning taraqqiy etishida Russo, Frebel, Montessorilarning xizmati katta. Ular bolaning individualligini rivojlantirish va mustaqilligini himoya qilish kerak deb hisoblaydilar. Mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimining asosiy maqsadi har bir bolaga mustaqillik, erkinlik, o'z fikrini erkin bayon qilish imkoniyatlarini yaratib berishda o'yinlardan ko'proq foydalanish, shuningdek o'yin davomida o'qtirish yo'li orqali emas balki yon bosish, qo'llab-quvvatlash yo'li bilan turli materiallar hamda borliqdagi voqeа-hodisalar to'g'risida bilimlarni shakllantirishdan iboratdir. Ingliz bog'chalarida bolalar har bir guruhda 25 nafardan ortiq bo'limgan miqdorda bo'lib tarbiyalanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ingliz pedagoglarining 75 foizi bolalarni ta'lim olishga qiziqtirish uchun tashqaridan motivatsiya qilishni noma'qul deb hisoblaydilar. Yoki musobaqalashish natijasiga ko'ra g'olib bo'lgan bola agar (rasm chizish misolida) mukofotlanadigan bo'lsa, qiziqishi uchun rasm chizmay balki mukofot uchun rasm chizishni xohlab qoladi natijada esa bolada ichki motivatsiya yo'qolib, tashqi motivatsiya o'rnni egallaydi. Ingliz bog'chalarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bolalar ko'proq mustaqil shug'ullanadilar, pedagoglar esa ularni chetdan kuzatib turadilar. Umumiy vaqtning 15 foizi pedagog rahbarligida olib boriladi. Barcha tarbiyachilar bolalarning jismoniy rivojlanishi hamda ruhiy holatini diagnostikasi uchun mazmunli-rolli o'yinlar, rasm chizish hamda buyumlar yasash usulidan foydalanishi kerak, deb hisoblaydilar. Qolaversa ingliz bolalar bog'chalarida (til va matematika bo'yicha majburiy mashg'ulotlardan tashqari) suv, qum bilan o'yinlar va harakatli o'yinlar orqali tadqiqot faoliyatiga katta ahamiyat beradilar. Buyuk Britaniyada maktabgacha yoshdagи bolalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida asosiy faoliyati gimnastika, raqlardan iborat bo'lib, mashg'ulotlar ochiq maydonlarda o'tkaziladi[3].

Matematik tushuncha va bilimlar tug'ma bo'lmaydi, balki asta sekin faoliyat jarayonida o'zlashtirish darjasи va qiziqishlarning to'g'ri yo'nalganligi,

tizimlilik va izchillik asosida egallanadi. Matematik tushunchalar bir-biriga uzviy bog‘liqlik asosida hosil qilinadi. Har bir davlat o‘zidagi qonun va dasturlar asosida barcha sohalarda qator tizim va usullar ishlab chiqadi. Eng samarali va ijobjiy natijalar keltirgan metodika amaliyatga joriy etiladi.

Dunyo mamlakatlari orasida matematik bilimlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi bo‘yicha AQSh, Xitoy, Yaponiya va Rossiya davlatlari yetakchilik qilmoqda. Rivojlanish ko‘rsatkichi bo‘yicha har bir sohada, jumladan ta’lim tizimida ham Amerika Qo‘shma Shtatlari yetakchilik qiladi. Quyida keltirib o‘tilgan usullar ham Amerika maktabgacha ta’lim tizimida matematik tasavvur va tafakkurni shakllantirishda qo‘llanilib kelinadi.

Amerika bog‘chalarida matematikani o‘rgatishning 5 ta usuli:

1. Yangi ma’lumotni taqdim qilish va bolalar bilan birgalikda mashqlar qilish;
2. Ko‘pgina savol so‘rash va bunga bolalar bergan javoblarni tekshirish;
3. Ko‘rgazmalar bilan ta’minalash;
4. Faoliyat bajarish jarayonida bolalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish;
5. Qiyin faoliyatlar uchun oldindan namuna ko‘rsatish.

Xitoylik pedagoglar esa, matematikani o‘qitishni maxsus ishlab chiqilgan faoliyat deb bilishadi. Xitoy maktabgacha ta’lim tizimida alohida matematik manbalar mavjud:

1. Amaliy xitoy matematik faoliyati;
2. Matematik bosma nashrlar va ish daftarlari;
3. Xitoy matematik hikoyalari;
4. Xitoy matematikasi videolari;
5. Xitoy matematik dasturlari.

Ushbu davlatlarni rivojlanish va iqtisodiy o‘sishiga asosiy sabablardan biri, ta’lim tizimida matematik bilimlarni izchillik va tizimlilik asosida yo‘lga qo‘yliganligidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni pedagogik va psixologik jihatdan faoliyatlarda qiziqish va xohishlarini to‘g‘ri yo‘naltirish, yoshga xos xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish, faoliyat jarayoniga zamonaviy axborot

texnologiyalarini joriy etish, nazariy va amaliy bilimlarni uyg‘unlashuviga erishish kabi masalalarda yuqoridagi davlatlar katta mahorat va tajriba maktabiga ega. O‘zining har bir sohada tizimli rivojlanish yo‘liga ega davlatlar qatorida Rossiya davlati ham katta tajriba maktabiga ega. Ta’lim tizimi va sifati ham yetakchi o‘rinlarda turadi. Maktabgacha ta’lim tizimida matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonida turli usullardan foydalaniladi:

- amaliy;
- aniqlik;
- og‘zaki;
- o‘yin.

Usulni tanlashda bir qator omillar hisobga olinadi:

Hal qilingan dasturiy ta’milot vazifalari;

Bolalarning yoshi va individual xususiyatlari;

Zarur didaktik vositalarning mavjudligi va boshqalar.

Germaniya qonunlarida maktabgacha ta’lim olishning bepul huquqi belgilangan. Bolalarni 4 oyligidan boshlab yasli<sup>1</sup>ga olib borish mumkin. Ko‘pchilik nemislar bu huquqdan foydalanadilar. Germaniya bolalar bog‘chalari turlari xilma-xildir. Xususan ular quyidagilarga bo‘linadi.

1. Waldkindergarten (Nemischa - “Wald” so‘zidan -o‘rmon, nemischa “Kindergarten” - bolalar bog‘chasi) demakdir. Bunday bolalar bog‘chalarini yaratish fikri Skandinaviyada boshlangan. Ko‘pgina bunday bog‘chalar o‘rmonda joylashadi. Bolalar doimo ochiq havoda sayr qilib turli mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanadilar, daraxtlar va boshqa o‘simgilklarni o‘rganadilar, tabiiy materiallardan turli narsalar yasaydilar ular to‘g‘risida tasavvurlarga ega bo‘ladilar. Bu orqali bolalarga tabiatni sevish va uni asrab - avaylashdek insoniy tuyg‘ular shakllantiriladi.

2. Bauernhofkindergarten (Nemischa “Bauernhof” so‘zidan - dehqon hovlisi, qo‘rg‘oni, “Kindergarten” - bolalar bog‘chasi). Bunday bog‘chalar dehqon xo‘jaliklarida, fermalar yoki ularga yaqin yerlarda joylashgan bo‘ladi.

<sup>1</sup> Uch yoshgacha bo‘lgan go‘daklarni saqlab boquvchi tarbiyaviy muassasa

Bolalar kuchlari yetguncha fermerlarga mollarni boqishda, dala va bog'larda sabzavot va mevalar o'stirishda yordam beradilar.

3. Freinet-Kindergarten. Maktabgacha pedagogikaning bu yo'nalishi o'z nomini bolalar tarbiyasida o'ziga xos yondashish usulini ishlab chiqqan italiyalik oilaviy juftlik familiyasidan olingan. Bu yo'nalishning o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda bola butunlay erkin va mustaqil bo'ladi. Ya'ni bolalar nima qilishlarini, qanday o'yin o'ynashlarini, nima bilan shug'ullanishlarini, qachon ovqatlanishlari va uqlashlarini o'zlari hal qiladilar. Bolalarni ko'proq ijod qilish, syujetli-rolli o'yinlari, tajribalar, tabiat qo'ynida yoki shaharning korxona va tashkilotlarida sayohatga olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Integratsion bolalar bog'chalari. Bunday turdag'i maktabgcha ta'lim muassasalarida sog'lom bolalar bilan birgalikda jismonan va ruhiy nosog'lom bolalar birgalikda tarbiyalanadilar. Bunday sharoit oddiy bolalar uchun chidamlilik, bag'rikenglik va hurmat qilishni o'rghanishga ajoyib imkoniyat deb qaraladi. Imkoniyatlari cheklangan bolalar jamiyatdan ajralgan holatda bo'lmaydilar, o'z tengdoshlari bilan muloqot va hamjihatlikda bo'lishni o'rGANADILAR. Shunday bog'cha va maktablarning soni ko'pligi Germaniyada nogironlarning yashashi, ta'lim olishi va o'zini namoyon qilishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.

5. Internatsional bolalar bog'chalari. Bunday bolalar bog'chalari emigrantlar uchun yaratilgan bo'lib, ko'pincha ularni emigrantlarning o'zlari farzandlari uchun tashkil etadilar. Germaniya turk-nemis, yahudiy, rus-nemis bolalar bog'chalari juda ko'p. Bunday guruhlarda doimo bolalar bilan ona tilida so'zlovchi tarbiyachi bilan birga nemis tilida so'zlovchi tarbiyachi ham bo'ladi. Bunda bolalar ham ota-onalarining tilini, shuningdek nemis tilini ham o'rGANADILAR. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar bilan harakatli o'yinlar, gimnastika, yugurish, sakrash kabi ish shakllari o'tkaziladi. Jismoniy tarbiya dasturi suv o'yinlari va suzish mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi[4].

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari ularning davlatlarini rivojlanishiga katta xizmat qilib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, bizning mamlakat ham unib-o‘sib kelayotgan barkamol avlod ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor qaratmoqda. Bu borada kerak bo‘lsa, xorijiy davlatning ilg‘or tajribalaridan unumli foydalanish orqali milliy ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish davr talabi hisoblanadi. Zero, mamlakatimiz ezgu maqsad-Uchinchi Renesans davrini barpo etishni rejalashtirgan. Ana shunday ezgu maqsadlarni esa albatta bugungi kunda voyaga yetayotgan avlod amalga oshiradi. Maktabgacha ta’lim va tarbiya esa ana shu avlodni ta’limning birinchi bo‘g‘inidan savodli va tarbiyali bo‘lishini ta’minlashga xizmat qilishi kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-oktabr kuni “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga” bag‘ishlangan yig‘ilishi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘isida” gi PQ-2707-sonli qarori.
3. <http://razvivash-ka.ru/sistema-doshkolnogo-obrazovania-v-germanii/>
4. Qilichova.M MAK TABGACHA TA’LIM VA TARBIYANING XORIJ DAVLATLARDAGI ILG‘OR TAJRIBALAR. Academic Research in Educational Sciences.B.739.740.
5. Olimjonova.D. Maktabgacha ta’lim tizimida elementar matematika bilimlarining ahamiyati. Yangi o‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi. 2023.B.97.99.